REKLAMADA MILLIY QADIRYATLAR VA MADANIY OBRAZLARDAN FOYDALANISH

Muhammadjonova Robiya Muzaffarovna
Oxus universiteti Raqamli marketing va Menejment yonalishning talabasi
maxamadjonovarobiya500@gmail.com
Samandar Yusupov Anvarovich
University of Management and Future Technologies universitedi magistranti Toshkent, 100208, O‘zbekiston Samandar75781111@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada reklama faoliyatda milliy qadiryatlar va madaniy obrazlardan foydalanishning ahamiyati ,ularning istemolchilar ongiga tasiri hamda milliy ozlikni ifodalashdagi orni yoritiladi.Shuningdek reklama matnlari va vizual tasvirlarda milliy urf-odatlar , ananalar ,milliy liboslar, xalq amaliy sanati, tarixiy obidalar hamda madaniy ramzlardan foydalanishning oziga xos jihatlari tahlil qilnadi.Milliy qadiryatlarni reklama mazmuniga singdirish orqali istemolchilarda mahsulot yoki brendga nisbatan ishonch,qiziqish va ijobiy munosabatni shakillantirish imkoniyatlari korib chiqiladi. Maqolada,shuningdek,milliy madaniy merosni reklamada togri mazmunli va zamonaviy talablarga mos ravishda namoyon etish masalalariga etibor qaratiladi.Taqdiqot natijalari milliy qadiryatlar va madaniy obrazlar reklamaning tasirchanligini oshirish, milliy madaniyatni targib qilish hamda brendning oziga xos qiyofasini shakillantirishda muhim vosita ekanligini korsatishga qaratilgan.*

Kalit sozlar: *Reklama, milliy qadiryatlar, madaniy obrazlar, milliy madaniyat, urf odatlar, ananalar, milliy ozlik, brend imiji, istemolchilar, madaniy meros.*

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot texnalogiyalari jadal rivojlanayotgan davrda reklama jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib, iste`molchilar dunyoqarashi, xulq-atvori va xarid qilish qarorlariga sezilarli ta`sir ko`rsatmoqda. Reklama nafaqat mahsulot va xizmatlarni targ`ib qilish vositasi, balki muayyon jamiyatning madaniy xususiyatlari, ijtimoiy qarashlari hamda milliy o`zligni ifodalovchi muhim kommunikatsiya shakli ham hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, reklama materiallarida milliy qadiryatlar va madaniy obrazlardan foydalanish masalasi alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Milliy qadiryatlar xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlari, an`analari tili, diniy-ma`naviy qarashlari va turmush tarizda namoyon bo`ladi. Ushbu elementlardan reklamada samarali foydalanish aditoriya bilan hissiy va ma`naviy aloqani mustahkamlash, reklama mazmunning tushunarligini oshirish hamda iste`molchilarda mahsulot yoki brendga nisbatan ijobiy munosabat shakillantirishga xizmat

qiladi. Mazkur qadiryatlarning reklama mazmunida aks etishi milliy o`zlikni anglash tuyg`usini mustahkamlash hamda zamonaviy reklama vositalari orqali madaniy merosni keng ommaga yetkazish imkonini beradi. Shu bilan birga, milliy qadiryat va madaniy obrazlardan foydalanishda ularning mazmunini to`g`ri talqin qilish, madaniy xususiyatlarni yuzaki aks ettirishdan qochish hamda reklama g`oyasi bilan milliy an`analar o`rtasidagi uyg`unlikni ta`minlash muhimdir. Aks holda, milliy ramizlarning noto`g`ri yoki noo`rin qo`lanilishi reklamaning ta`sirchanligini pasaytiishi mumkin. mazkur maqolaning maqsadi reklamada milliy qadiryatlar va madaniy obrazlardan foydalanishning o`ziga xos xususiyatlarni o`rganish, ularning reklama samaradorligi hamda auditoriya idrokiga ta`sirini tahlil qilishdan iborat. Milliy qadiryatlarninng reclama faoliyatida qo`llanishi bugungi kunda aholida e`tiboriga molik masalalardan biridir. Chunki har bir xalqning o`ziga xos madaniyati, urf-odatlari, an`analari va tarixiy merosi mavjud bo`lib ular reclama mazmunini boyitishda muhim vosita bo`lib xizmat qiladi. Ayniqsa, O`zbekiston kabi boy tarixiy va madaniy merosga ega mamlakatda milliy qadiryatlarni reklama orqali namoyon etish katta ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda reklama sohasida an`anaviy usullar bilan bir qatorda zamonaviy texnalogiyalar, intrnet va ijtimoiy tarmoqlardan ham keng foydalanilmoqda. Bu esa milliy madaniyat namunalarni nafaqat mahalliy auditoriyaga, balki xorijiy iste`molchilarga ham tanishtirish imkonini bermoqda. Masalan, milliy hunarmandchilik mahsulotlari, atlas va adras matolari, kulolchilik buyumlari, milliy taomlar hamda tarixiy obidalar tasviri orqali o`zbek xalqining madaniy boyligini namoyish etish mumkin. Mazkur mavzuni o`rganish reklama faoliyatda milliy qadiryatlarning qanday ifodalanishini, ularning iste`molchilar bilan muloqatdagi o`rnini hamda zamonaviy reklama vositalari orqali madaniy merosni targ`ib qilish imkoniyatlarni aniqlashga yordam beradi.

Asosiy qisim. Reklamada milliy qadiryatlar va madaniy obrazlardan foydalanish reclama mazmunini boyitish hamda auditoriya e`tiborini jalb qilishda muhim ahamiyatga ega. O`zbek xalqiga xos mehmondo`stlik, oilaparvarlik, kattalarga hurmat va milliy an`analar reklamalarda keng qo`llaniladi. Milliy kiyimlar, milliy taomlar, tarixiy obidalar va bayramlar reklamada madaniy obrazlar sifatida namoyon bo`ladi. Masalan, dasturxon atrofida jamlangan oila yoki miliy taomlar tasviri orqali mehr-oqibat va mehmondo`stlik qadiryatlari ifodalanadi. Bunday obrazlar iste`molchilarida ijobiy taassurot uyg`otib, reklamaning tushunarli va esda qolarli bo`lishga yordam beradi. Shu bilan birga, milliy qadiryatlarni reklamada to`g`ri aks ettirish, ularning mazmunini saqlash va zamonaviy usullar bilan uyg`unlashtirish muhimdir.


Reklamada milliy qadiryatlar va madaniy obrazlardan foydalanishning asosiy g`oyasi – xalqning urf-odatlari, an`analari, milliy madaniyatga tarixiy merosni reklama orqali keng targ`ibqilishdir. Bunda milliy kiyimlar, an`anaviy taomlar, oilaviy qadiryatlar,

mehmondo`stlik va milliy bayramlar kabi obrazlardan foydalaniladi. Bu esa iste`molchilarda mahsulotga nisbatan qiziqish va ishonch uyg`otib, brendning o`ziga xosligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek milliy qadiryatlarni zamonaviy reklama bilan uyg`unlashtirish orqali yosh avlodda milliy madaniyatga hurmatni kuchaytirish va madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazish mumkin.



1-rasm. Reklamada milliy qadiryatlar, oilaviy an`analar va mehmondo`stlik obrazlarning aks etishi.

Mazkur rasmda o`zbek xalqiga xos bo`lgan milliy qadiryatlar va madaniy an`analar reklama vositasida ifodalangan. Unda milliy liboslar kiygan oila a`zolari, an`anaviy dasturxon, milliy taomlar hamda tarixiy me`moriy obida tasviri uyg`unlashgan. Ushbu obrazlar orqali xalqimizga xos mehmondo`stlik, oila muqaddasligi, kattalarga hurmat va avlodlar o`rtasidagi mehr-oqibat kabi qadiryatlar namayon etilgan. Reklamada bunday madaniy obrazlardan foydalanish iste`molchilarda iliq taassurot uyg`otadi va reklama mazmunning yanada ta`sirchan bo`lishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, milliy madaniyatning o`ziga xos jihatlarini keng ommaga tanitish hamda yosh avlodda milliy qadiryatlarga hurmat tuyg`usini shakillantirish imkonini beradi.



2-rasm.Ushbu rasmda milliy hunarmandchilik va madaniy meros namunalarning zamonviy axborot texnalogiyalari yordamida reklama qilinishi tasvirlangan.

Unda iste`molchi smartfon orqali milliy uslubda tayyorlangan muhsulotlar va hunarmandchilik namunalari haqidagi reklama bilan tanishmoqda. Rasmda an`anaviy naqshlar, milliy matolar, tarixiy me`moray obidalar va zamonaviy ijtimoiy tarmoqlar birgalikda aks etirilgan. Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar milliy madaniyatni keng auditoriyaga yetkazishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Instagram, Telegram va boshqa raqamli platformalar orqali milliy mahsulotlar, qo`l mehnati bilan yaratilgan buyumlar hamda xalq amaliy san`ati namunalari targ`ib qilish imkoniyati kengaymoqda. Bunday reklama usuli milliy hunarmandchilikka bo`lgan qiziqishni oshirish, mahalliy brendlarni tanitish va ularning zamonaviy bozordagi o`rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda,reklamada milliy qadiryatlar va madaniy obrazlardan foydalanish bugungi zamonaviy reklama faoliyatning muhim yo`nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki reklama orqali nafaqat mahsulot va xizmatlar targ`ib qilinadi, balki xalqning tarixi, madaniyati, urf –odatlari va ma`naviy merosi ham keng ommaga yetkaziladi. Ayniqsa, milliy liboslar, an`anaviy dasturxon, oilaviy munosabatlar, xunarmadchilik namunalari va tarxiy obidalarning o`ziga xoslikni namoyon etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlillar shuni ko`rsatadiki, milliy madaniy obrazlardan to`g`ri foydalanish reklamaning mazmunan boyishi, iste`molchilar e`tiborini jalb qilishi va mahsulot yoki brendning boshqalardan ajralib turishiga yordam beradi. Shuningdek, zamonaviy raqamli texnalogiyalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali milliy qadriyatlarni keng auditoriyaga yetkazish imkoniyatlari yanada ortib bormoqda. Shu bilan birga, reklama yaratuvchilari milliy qadiryatlarni aks ettirishda ularning tarixiy va ma`naviy mazmuniga alohida e`tibor

qaratishlari lozim. Zero, milliy madaniyatni reklamada to`g`ri va ijodiy ifodalash nafaqat tijoriy samaradorlikni oshiradi, balki yosh avlodda o`z xalqining tarixi va an`analariga hurmat tuyg`usini shakillantirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanlilgan Adabiyotlar

1.O`zbekiston Respublikasining 2022-yil 7-iuyndagi O`RQ-776-sonli “Reklama to`g`risida”gi Qonuni. https//lex.uz/uz/docs/-6052631

2.Kotler, P., Keller, K.L. Marketing Management. 15th edition.

3.Hofstede, G., Hofstede, G. J., Minkov, M. Cultures and Organizatsions: Software of the Mind. 3rd edition. McGraw-Hill, 2010.

4.Cook, G. The Discourse of Advertsing. 2 nd edition. Routledge, 2001.